Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 91
TABIIY FANLAR

FARG'ONA VILOYATIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING AHOLI JOYLASHUVIGA TA'SIRI

Ruqiyaxon Zaxronova[a,*], Mohinur Abdurahimova[b]

[a] *Farg'ona davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrar qo'shma fakulьteti Geografiya yo'nalishi 4 kurs 23.61 guruh talabasi*
[b] *Farg'ona davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrar qo'shma fakulteti Geografiya yo'nalishi 4 kurs 23.61 guruh talabasi*
✉ ruqiyaxon44@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur bitiruv malakaviy ishida Farg'ona viloyatida urbanizatsiya jarayonlarining aholi joylashuviga ta'siri iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nuqtai nazaridan tahlil qilingan. *Tadqiqotda urbanizatsiyaning* nazariy asoslari, viloyatning tabiiy-geografik sharoiti, aholi soni va zichligi dinamikasi, shaharlar tizimi, sanoatning hududiy joylashuvi hamda migratsiya jarayonlari statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Aniqlanishicha, viloyat aholisining 56,8 foizi shaharlarda yashaydi, aholi zichligi so'nggi yillarda izchil ortib bormoqda, uchta yirik shahar (Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon) viloyat aholisining qariyb beshdan bir qismini o'zida jamlagan. *Ishda urbanizatsiyaning* landshaft va ekologik oqibatlari ham ko'rsatib berilgan hamda hududiy rivojlanishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

urbanizatsiya, aholi joylashuvi, aholi zichligi, shaharlar tizimi, Farg'ona viloyati, shahar aholisi ulushi, migratsiya, sanoat markazlari, aglomeratsiya, antropogen bosim, hududiy rivojlanish.

DOI: 10.5281/zenodo.23505587

KIRISH

Aholining hududiy joylashuvi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim geografik jarayonlardan biridir. Zamonaviy davrda bu jarayonga eng kuchli ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri urbanizatsiya, ya'ni shaharlar sonining, ularning aholisi va hududiy hajmining o'sishi hamda shahar turmush tarzining qishloq joylarga tarqalishidir. Urbanizatsiya aholining zichligi, tarkibi, bandligi va hududlararo taqsimotini o'zgartirib, xo'jalikning joylashuvi bilan bevosita bog'lanadi [17; 18].

Farg'ona viloyati O'zbekistonning eng zich aholi joylashgan hududlaridan biri bo'lib, Farg'ona vodiysining markaziy va janubiy qismida joylashgan. 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyatning doimiy aholisi 4 223,0 ming kishini tashkil etgan, bir kvadrat kilometrga o'rtacha 624,8 kishi to'g'ri kelgan (hisob-kitob) [12]. Viloyat hududida tarixan qadimiy shaharlar (Qo'qon, Marg'ilon) bilan birga XIX asrda vujudga kelgan Farg'ona shahri, shuningdek, XX asrda sanoat negizida shakllangan Quvasoy kabi shaharlar mavjud. Bu esa shaharlar tizimining murakkab, ko'p qatlamli tarkibini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mamlakatda shaharsozlik siyosati, hududlarni kompleks rivojlantirish va hayot sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar kuchaytirildi. «Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi» hamda «O'zbekiston–2030» strategiyasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, shahar infratuzilmasini takomillashtirish va aholi turmush sharoitini yaxshilash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2; 3]. Shu sababli urbanizatsiya jarayonlarining aholi joylashuviga ta'sirini aniq hudud misolida baholash ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

Aholi joylashuvi va uning tabiiy-geografik asoslari bo'yicha o'zbek geograflari tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Sh.Sharipov aholi zichligini landshaft-tipologik kartalar asosida

hisoblash masalasini, Sh.Jumaxanov va H.Mirzaahmedov daryo havzalarida aholi joylashuvining xususiyatlarini, A.Soliyev esa hududiy majmualar va iqtisodiy-geografik tadqiqotlarda tabiiy omillarning o‘rnini yoritgan [6; 7; 8; 9]. Biroq Farg‘ona viloyati misolida urbanizatsiya jarayonlarining aholi joylashuviga ta’sirini so‘nggi statistik ma’lumotlar asosida kompleks tahlil qilish yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi Farg‘ona viloyatida urbanizatsiya jarayonlarining aholi joylashuviga ta’sirini aniqlash, shaharlar tizimi va aholi konsentratsiyasining xususiyatlarini ochib berish hamda hududiy rivojlanishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: urbanizatsiyaning nazariy asoslarini o‘rganish; viloyatning tabiiy-geografik sharoitini aholi joylashuvi nuqtai nazaridan baholash; aholi soni, shahar va qishloq aholisi ulushi hamda zichlik dinamikasini tahlil qilish; shaharlar tizimi va sanoat markazlarining roli hamda migratsiyani o‘rganish; urbanizatsiyaning landshaft va ekologik oqibatlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti – Farg‘ona viloyati aholisi va uning hududiy joylashuvi; predmeti – urbanizatsiya jarayonlarining aholi joylashuviga ta’siri. Ishda statistik, qiyosiy-geografik, kartografik, tarixiy-geografik va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Dastlabki ma’lumotlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi tomonidan e’lon qilingan demografik va sanoat ko‘rsatkichlari olindi [11–15].

NATIJA VA MUHOKAMA

1. Urbanizatsiyaning nazariy asoslari

Urbanizatsiya tushunchasi tor ma’noda shahar aholisi ulushining ortishini, keng ma’noda esa shaharlarning jamiyat hayotidagi rolining kuchayishi, shahar turmush tarzi va xo‘jalik shakllarining qishloq hududlarga yoyilishini bildiradi. Geografiyada urbanizatsiya uch asosiy ko‘rinishda o‘rganiladi: birinchisi – shahar aholisining soni va ulushining o‘sishi; ikkinchisi – shaharlar tarmog‘ining, ya’ni shaharlar sonining va ularning hududiy tizimining shakllanishi; uchinchisi – yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalarning vujudga kelishi [17; 18].

Aholi joylashuvi nuqtai nazaridan urbanizatsiya ikki qarama-qarshi jarayonni birga olib keladi. Bir tomondan, iqtisodiy imkoniyatlar, ish o‘rinlari va ijtimoiy xizmatlar shaharlarda to‘planib, aholini jalb qiladi va konsentratsiyani kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan, transport va aloqa rivojlanishi bilan shahar ta’siri atrofdagi qishloq hududlarga tarqaladi, natijada shahar atrofi (suburbanizatsiya) zonalari shakllanadi. Shu bois urbanizatsiyani faqat shahar aholisi ulushi bilan o‘lchash yetarli emas, uni aholi zichligi, shaharlar orasidagi masofa va xo‘jalik aloqalari bilan birga baholash lozim.

Tabiiy geografik omillar urbanizatsiyaning boshlang‘ich shartini belgilaydi: shaharlar qadim zamonlardan suv manbalari, unumdor tuproq va qulay relyef bor joylarda vujudga kelgan. Keyinchalik esa iqtisodiy omillarning roli ortib borgan [5; 9]. Bu fikr Farg‘ona vodiysi misolida yaqqol ko‘rinadi va keyingi bo‘limlarda alohida ko‘rib chiqiladi.

2. Viloyatning tabiiy-geografik sharoiti va aholi joylashuvi

Farg‘ona viloyati vodiyning markaziy va janubiy qismida, Sirdaryo havzasida joylashgan bo‘lib, hududning asosiy qismi tekislik va tog‘ oldi (adir) mintaqalaridan iborat. Viloyat maydoni taxminan 6,8 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Aholi zichligi bo‘yicha viloyat respublikada yuqori o‘rinlardan birini egallaydi: 2022-yil 1-oktabrda bir kvadrat kilometrga 573,8 kishi, 2025-yil 1-yanvarda 613,2 kishi to‘g‘ri kelgan, 2026-yil 1-yanvarga kelib bu ko‘rsatkich yana 11,6 kishiga ortgan [11–13].

Aholi va shaharlar asosan suv bilan ta’minlangan, tuproq unumdorligi yuqori bo‘lgan tekislik hududlarida to‘plangan. Sug‘orma dehqonchilikning ming yillik an’anasi, XX asrda qurilgan yirik sug‘orish kanallari va kichik daryolar (So‘x, Shohimardonsoy, Isfayramsoy kabi) vodiy tubida zich qishloq va shahar aholi punktlari tarmog‘ini shakllantirdi [10; 7]. Tog‘ va adir landshaftlarida esa, tabiiy sharoit va suv ta’minotining cheklanganligi tufayli aholi siyrak joylashgan. Landshaftlarda aholining zichlashuviga tabiiy omillar bilan birga sanoatlashuv ham ta’sir qilishi A.Soliyev va Sh.Sharipov tadqiqotlarida ko‘rsatib o‘tilgan [6; 9].

Shuni ta’kidlash kerakki, vodiyning qulay tabiiy sharoiti hozirgi kunda urbanizatsiya uchun ham ustunlik, ham cheklov bo‘lib xizmat qilmoqda. Ustunligi – tayyor infratuzilma, zich yo‘l va kommunikatsiya

tarmog‘i va mehnat resurslarining mavjudligi; cheklovi esa shaharlar kengayishi unumdor sug‘oriladigan yerlar hisobiga amalga oshishi, ya’ni qishloq xo‘jaligi yerlarining qisqarish xavfidir [5].

3. Aholi soni va urbanizatsiya darajasi dinamikasi

Statistika ma’lumotlariga ko‘ra, Farg‘ona viloyati doimiy aholisi 2024-yil 1-yanvarda 4 061,5 ming, 2025-yil 1-yanvarda 4 144,7 ming, 2026-yil 1-yanvarda esa 4 223,0 ming kishini tashkil etgan [11; 12; 15]. Bu har yili o‘rtacha 2 foizga yaqin o‘sishni bildiradi: 2024-yilda o‘sish 2,0 foiz, 2025-yilda 1,9 foiz bo‘lgan. 2025-yilda viloyat aholisi 78,3 ming kishiga ko‘paygan.

1-jadval. Farg‘ona viloyati aholisi va uning shahar-qishloq tarkibi (ming kishi)

Sana	Doimiy aholi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Zichlik (kishi/km²)
2023-yil 1-iyul	4 014,8	2 285,4	1 729,4	–
2024-yil 1-yanvar	4 061,5	–	–	–
2025-yil 1-yanvar	4 144,7	2 354,9	1 789,8	613,2
2026-yil 1-yanvar	4 223,0	–	–	624,8*

*Manba: Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan [11–13; 15; 19]. *613,2 + 11,6 formulasi bo‘yicha hisoblangan.*

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2025-yil 1-yanvar holatiga shahar aholisi 2 354,9 ming kishi (56,8 foiz), qishloq aholisi 1 789,8 ming kishi (43,2 foiz) bo‘lgan [11]. 2023-yil o‘rtalarida bu ulush 56,9 foizga teng bo‘lgan (2 285,4 / 4 014,8). Demak, rasmiy statistikada shahar aholisi ulushi ikki yil davomida deyarli o‘zgarmagan, ya’ni shahar va qishloq aholisi bir xil sur’atda o‘sgan. Bu holat, ehtimol, qishloqlarda tabiiy ko‘payish yuqoriligicha qolayotgani va yirik qishloq aholi punktlarining shahar xususiyatlarini kasb etayotgani bilan bog‘liq bo‘lib, urbanizatsiya aholi ulushining keskin o‘sishi shaklida emas, balki aholi zichligining ortishi va shaharlar atrofida uzluksiz aholi punktlari zanjirining hosil bo‘lishi shaklida namoyon bo‘lmoqda.

Bundan tashqari aholi zichligi 2022-yil oktabrdan 2026-yil boshiga qadar 573,8 dan 624,8 kishiga, ya’ni taxminan 8,9 foizga ortgan. Demak, viloyatda urbanizatsiyaning asosiy ko‘rinishi – mavjud aholi punktlarida aholining zichlashishi hamda shaharlarning atrofga yoyilishidir.

4. Shaharlar tizimi va aholi konsentratsiyasi

Viloyatda aholi soni bo‘yicha uchta yirik shahar ajralib turadi: Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon. 2026-yil 1-yanvar holatiga ularning aholisi mos ravishda 335,1; 319,6 va 261,9 ming kishini tashkil etgan [12]. Bu uch shahar aholisining yig‘indisi 916,6 ming kishi bo‘lib, viloyat aholisining 21,7 foizini tashkil qiladi (2025-yilda ham xuddi shu ulush: 899,9 ming, 21,7 foiz).

2-jadval. Farg‘ona viloyatidagi yirik shaharlar aholisi (ming kishi)

Shahar	2025-yil 1-yanvar	2026-yil 1-yanvar	O‘sish sur’ati, %
Farg‘ona	328,4	335,1	102,0
Qo‘qon	313,6	319,6	101,9
Marg‘ilon	257,9	261,9	101,6
Jami (uch shahar)	899,9	916,6	101,9

Manba: Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari [12]; jami qatori muallif hisobi.

Farg‘ona shahrining o‘sish sur’ati (102,0 foiz) boshqa ikki shaharnikidan yuqori, Marg‘ilonda esa eng past (101,6 foiz). Shaharlarning tarixiy shakllanishi ham turlicha: Qo‘qon va Marg‘ilon X asrdan ma’lum, Farg‘ona shahri esa 1877-yilda yangi ma’muriy markaz sifatida barpo etilgan. Sanoat davrida Quvasoy kabi sanoat shaharlari ham shakllandi. Natijada Farg‘ona–Marg‘ilon yo‘nalishida shaharlar bir-biriga yaqin joylashgan va ularning atrofidagi aholi punktlari bilan funksional bog‘langan aglomeratsiya sari tendensiya kuzatilmoqda. Qo‘qon esa vodiyning g‘arbiy qismida mustaqil markaz sifatida o‘z ta’sir doirasini saqlab turibdi.

Qayd etish joizki, Qo‘qon shahri aholisi 2022-yil oktabrdan 2023-yil aprelgacha statistik hisobotlarda 263,0 mingdan 305,0 ming kishigacha keskin ortgan [13; 16]. Bunday sakrash tabiiy o‘sish bilan emas, ehtimol, ma’muriy chegaralarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, shu sababli vaqt qatorlarini solishtirishda ma’muriy chegaralar o‘zgarishini hisobga olish zarur. Bu holat Y.I.Ahmadaliyev tomonidan ham qayd etilgan muammoni, ya’ni ma’muriy va tabiiy-hududiy birliklar chegaralarining mos tushmasligi statistik tahlilni murakkablashtirishini yana bir bor tasdiqlaydi [5].

5. Sanoat va iqtisodiy omillarning roli

Aholining shaharlarda to‘planishida iqtisodiy omillar hal qiluvchi o‘rin tutadi. 2025-yil yanvar–dekabr oylarida Farg‘ona viloyatida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 59 364,4 mlrd so‘mni tashkil etib, fizik hajm indeksi 107,3 foiz bo‘lgan; shundan faqat Farg‘ona shahrining o‘zida 12 666,6 mlrd so‘m (21,3 foiz) ishlab chiqarilgan [14]. Holbuki, Farg‘ona shahrida viloyat aholisining atigi 7,9 foizi yashaydi (335,1 / 4 223,0). Boshqacha aytganda, shahar aholining ulushidan qariyb 2,7 baravar katta sanoat ulushini beradi. Bu sanoatning yirik shaharlarda konsentratsiyalashganini va ularning aholini o‘ziga tortish kuchini ko‘rsatadi.

Viloyat shaharlari sanoat ixtisosligiga ko‘ra farqlanadi: Farg‘ona shahrida neftni qayta ishlash va kimyo, Quvasoyda qurilish materiallari va kimyo, Qo‘qonda kimyo va mashinasozlik, Marg‘ilonda to‘qimachilik hamda ipakchilik tarmoqlari yirik korxonalarga tayanadi. Mehnat bozori bu markazlarga nafaqat shahar, balki atrofdagi qishloq aholisini ham jalb qiladi. Natijada kundalik mayatnik migratsiyasi vujudga keladi va shahar ta’sir zonasi kengayadi. Viloyatdagi yuqori texnologiyali sanoat ulushi hali juda past (2025-yil yanvar–may oylarida 0,8 foiz atrofida) bo‘lib, bu hududiy iqtisodiyotning diversifikatsiya zaruratini ko‘rsatadi [14].

6. Migratsiya va aholi joylashuvi

Viloyatda aholining o‘sishi, asosan, tabiiy ko‘payish hisobiga yuz bermoqda: 2025-yilda 98,3 ming bola tug‘ilgan [12]. Rasmiy ro‘yxatga olingan migratsiya esa viloyat darajasida manfiy saldoga ega bo‘lgan.

3-jadval. 2025-yil yanvar–dekabr oylarida rasmiy ro‘yxatga olingan ko‘chishlar (kishi)

Hudud	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Saldo
Farg‘ona viloyati	15 336	16 569	−1 233
Qo‘qon shahri	2 570	1 966	+604
Marg‘ilon shahri	939	1 626	−687

Manba: Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida [12]; saldo muallif hisobi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, Qo‘qon shahri ijobiy saldoga ega bo‘lib, aholi oqimini jalb qilmoqda, Marg‘ilonda esa chiqib ketish ko‘proq. Bu shaharlararo farqlar ish o‘rinlari, uy-joy sharoiti va transport imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq rasmiy ro‘yxatga olingan ko‘chishlar mavsumiy va norasmiy mehnat migratsiyasini to‘liq aks ettirmasligini inobatga olish zarur. Shuning uchun migratsiyaning urbanizatsiyadagi o‘rnini baholashda qo‘shimcha sotsiologik tadqiqotlar talab etiladi.

7. Urbanizatsiyaning landshaft va ekologik oqibatlari

Urbanizatsiya aholi joylashuvini o‘zgartirish bilan birga tabiiy landshaftlarga ham antropogen bosimni oshiradi. Farg‘ona vodiysi landshaftlari uzoq yillar davomida mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan intensiv o‘zgarishga uchragan: o‘zlashtirilgan yerlar ulushi katta, kanallar va suv omborlari qurilgan [5]. Shaharlar kengayishi sharoitida bu bosim yanada kuchayadi.

Asosiy oqibatlar quyidagilardan iborat: birinchidan, shahar va aholi punktlarining kengayishi unumdor sug‘oriladigan yerlar hisobiga amalga oshadi; ikkinchidan, sanoat va transport havo hamda suv havzalarining ifloslanishini kuchaytiradi; uchinchidan, aholi zichligi oshgani sari ichimlik suvi, kanalizatsiya va chiqindilarni boshqarish tizimiga yuklama ortadi; to‘rtinchidan, yashil maydonlar va shahar atrofidagi tabiiy landshaftlar qisqaradi. Sh.Sharipov tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, aholi zichligi va antropogen o‘zgarishlarni baholashda landshaft yondashuvidan foydalanish bu jarayonlarni obyektiv o‘rganish imkonini beradi [6].

8. Muammolar va istiqbollar

Tahlillar viloyatda urbanizatsiyaning bir nechta muammolarini ko‘rsatdi. Birinchisi – aholi zichligining yuqoriligi va uning izchil o‘sishi, bu ijtimoiy infratuzilmaga bosimni oshiradi. Ikkinchisi – sanoat va aholi konsentratsiyasining yirik shaharlarda yuqoriligi, tog‘ oldi va chekka tumanlarning nisbatan kam rivojlanganligi. Uchinchisi – ma’muriy chegaralar va tabiiy-hududiy birliklarning mos kelmasligi tufayli statistik ma’lumotlar asosida hududiy qarorlar qabul qilishdagi qiyinchiliklar. To‘rtinchisi – shahar kengayishi hisobiga qishloq xo‘jaligi yerlarining qisqarishi.

Bu muammolarni hal qilish uchun quyidagi yo‘nalishlar maqsadga muvofiq: shaharlar bosimini kamaytirish maqsadida o‘rta va kichik shaharlar hamda yirik qishloq markazlarini rivojlantirish; sanoatni hududlar bo‘yicha muvozanatli joylashtirish va yuqori texnologiyali tarmoqlarni jalb qilish; shaharlar kengayishini bosh rejalar asosida, unumdor yerlarni saqlagan holda tartibga solish; shahar va aholi punktlarini rejalashtirishda landshaft yondashuvini, geografik axborot tizimlari (GIS) va masofadan zondlash ma’lumotlarini qo‘llash. Bu yo‘nalishlar Shaharsozlik kodeksi talablari va yuqorida qayd etilgan strategiyalarga mos keladi [2–4].

XULOSA

Olib borilgan tahlillar Farg‘ona viloyatida urbanizatsiya jarayonlari aholi joylashuvini sezilarli darajada shakllantirayotganini ko‘rsatdi. Viloyat aholisi 2024–2026-yillarda 4 061,5 mingdan 4 223,0 ming kishigacha ortgan, aholi zichligi

esa 2022-yil oktabrdagi 573,8 dan 2026-yil boshida taxminan 624,8 kishi/km² gacha o‘sgan. Shahar aholisining ulushi 56,8–56,9 foiz atrofida barqaror bo‘lib, bu urbanizatsiyaning vodiyda asosan aholi zichlashuvi va shaharlarning atrofga yoyilishi shaklida kechayotganini bildiradi.

Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon viloyat aholisining 21,7 foizini jamlagan; Farg‘ona shahri aholining 7,9 foizini tashkil etgani holda sanoat mahsulotining 21,3 foizini beradi. Bu iqtisodiy omillar urbanizatsiya va aholi konsentratsiyasida hal qiluvchi ekanini tasdiqlaydi. Migratsiya saldosi viloyat darajasida manfiy (−1 233 kishi), shuning uchun aholi o‘sishi asosan tabiiy ko‘payish hisobiga yuz bermoqda.

Urbanizatsiya bilan bog‘liq asosiy xavflar – unumdor yerlarning qisqarishi, ekologik yuklamaning ortishi va infratuzilmaga bosim. Shu bois aholi joylashuvini tartibga solishda landshaft yondashuvini, GIS va masofadan zondlash texnologiyalarini birlashtirish, o‘rta va kichik shaharlarni rivojlantirish hamda sanoatni muvozanatli joylashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida».
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni «O‘zbekiston–2030» strategiyasi to‘g‘risida».
4. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi (2002).
5. Ahmadaliyev Y.I. Yer resurslaridan foydalanish geoekologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 340 b.
6. Sharipov Sh. Aholi zichligini hisoblashda landshaft-tipologik kartalardan foydalanish // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 34-jild. – T., 2009. – B. 166–168.
7. Jumaxanov Sh., Mirzaahmedov H. Daryo havzalarida aholi joylashuvining o‘ziga xos xususiyatlari // O‘zbekiston geografiya jamiyatining axborotnomasi, 36-jild. – T., 2010. – B. 80–83.
8. Soliyev A. Hududiy majmualarning nazariy asoslari. – Toshkent: Universitet, 2007. – 92 b.
9. Soliyev A.S. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarda tabiiy geografik omillar yoxud geografik sintez haqida // O‘zbekiston geografiya jamiyati axborotnomasi, 45-jild. – T., 2015. – B. 3–7.
10. Isoqov Z. Farg‘ona vodiysi an’anaviy dehqonchilik madaniyati (xo‘jalik-madaniy an’analar: tavsifi va tahlili). – T.: Yangi nashr, 2011. – 144 b.
11. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. Farg‘ona viloyatining demografik holati (2025-yil 1-yanvar holatiga). – https://www.farstat.uz/uploads/press24/DM-PR-12-2024.pdf
12. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. Farg‘ona viloyatida demografik holat (2026-yil 1-yanvar holatiga). – https://www.farstat.uz/uploads/press25/DM-PR-12-2025.pdf
13. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. Farg‘ona viloyatining demografik holati (2022-yil 1-oktabr holatiga). – https://farstat.uz/uploads/press22/DM-PR-09-2022.pdf
14. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari (2025-yil yanvar–dekabr). – https://www.farstat.uz/uploads/press25/SN-PR-12-2025.pdf
15. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Farg‘ona viloyati doimiy aholisi sonining taqsimlanishi (2024-yil 1-yanvar). – https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/49847-farg-ona-viloyati-do-imiy-aholisi-sonining-taqsimlanishi-4
16. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi. Farg‘ona viloyatining demografik holati (2023-yil 1-aprel holatiga). – https://farstat.uz/uploads/press23/DM-PR-03-2023.pdf
17. Лаппо Г.М. География городов. – М.: Владос, 1997.
18. Хорев Б.С. Проблемы городов. – М.: Мысль, 1975.
19. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Farg‘ona viloyati doimiy aholisi sonining taqsimlanishi (2023-yil 1-iyul). – https://stat.uz/en/press-center/news-of-committee/42391-farg-ona-viloyati-doim-iy-aholisi-sonining-taqsimlanishi-4